



BOSHLANG‘ICH SINFLARDA EKOLOGIK TA‘LIMNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

Shermatova U.Sh.

*Termiz davlat pedagogika instituti Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi
kafedrasi o‘qituvchisi*

Tayanch so‘zlar: boshlang‘ich sinf, ekologiya, atrof-muhit, ekologik madaniyat, ekologik muammo, metodologiya, usul, vosita, shakl, ekologik tarbiya.

Ключевые слова: бошланғич синф, экология, атроф-мухит, экологик маданият, экологик муаммо, методология, усул, восита, шакл, экологик тарбия.

Key words: boshlang‘ich sinf, ekologiya, atrof-muhit, ekologik madaniyat, ekologik muammo, metodologiya, usul, vosita, shakl, ekologik tarbiya.

Darhaqiqat, kelajagimizning taraqqiyoti ta‘limning poydevori bo‘lgan boshlang‘ich maktabda ilm olayotgan o‘quvchilarning ma‘naviy-axloqiy jihatdan mustahkam tarbiyalanishi, barkamol avlod bo‘lib etishishiga ko‘p jihatdan bog‘liqdir. Shuningdek, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yosh xususiyatlariga javob beradigan va dars talablariga mos keladigan maqsadni aniqlash bunday yangilanishning asosiy mezonidir.

Boshlang‘ich sinflarda ekologik ta‘limni rivojlantirish o‘quvchilarning egallagan bilimlari samarali bo‘lishi bilan bir qatorda ularning idrok etish qobiliyati, faolliklari, qiziqishlari, aqliy intellektual imkoniyatlari ortishiga erishiladi. O‘quv jarayonida o‘quvchilarda ekologik ta‘limni rivojlantirish turli o‘quv dasturlari, darsliklar mutanosibligini ta‘minlovchi didaktik imkoniyat sifatida tushunish lozim.

Buning uchun o‘qituvchilar yuqorida qayd etilgan muammolarni o‘rganish bilan bir qatorda, ularning fan va texnika, xalq xo‘jaligi va inson hayotidagi ahamiyatini anglashi, o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zahiralari monand holda didaktik qayta ishlashi va mavzularning mazmuniga kiritish yo‘llarini belgilashi nazarda tutiladi.



Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirishda fanlarni integrallash, ya'ni fanlararo aloqadorlikni amalga oshirish ta'lim-tarbiya jarayonining muhim didaktik sharti bo'lib, u quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. O'quvchilar uchun asosiy bilim manbai bo'lgan o'quv materialining ilmiyligi va izchilligi, boshqa fanlardan o'zlashtirilgan tushunchalarning didaktik bog'liqligini ta'minlaydi.

2. Oquvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish ortadi va aqliy rivojlanish tezlashadi.

3. Tabiiy fanlarni integrallash, ya'ni o'qitishda fanlararo aloqadorlikni bosqichma-bosqich va izchil amalga oshirish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirishga imkon yaratadi.

Tabiat va jamiyat qonunlarini o'rganuvchi tabiiy fanlar, ularning o'zaro yaqinlashuvi obyektiv jarayon hisoblanadi. Inson tabiatning tarkibiy qismi, fanlarning asosiy o'rganish obyekti hisoblanadi. Inson nafaqat biologik, balki ijtimoiy mavjudot hisoblanganligi tufayli unda moddiy dunyoning mexanik va ijtimoiy qonuniyatlari mustahkam birikkan holda mujassamlashgan bo'ladi.

Tabiat va jamiyatda sodir bo'ladigan voqea-hodisalarning, ular orasidagi aloqalarning bir-biriga bog'liq holda rivojlanishini tabiiy fanlarning integratsiyasi asosida tushuntirish o'quvchilar shaxsida organik olam haqida yaxlit bilimlar tizimini tarkib toptiradi va ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi.

O'quv jarayonida o'z o'quv fani nuqtai nazaridan kelib chiqib, chuqur bilim berishga harakat qilinadi. Natijada obyekt turli o'quv fanlari o'rtasida bo'linib, u haqida yaxlit, bir butun bilimlar tizimi tarkib topmaydi. Shuning uchun uni integratsiyalashgan holda o'qitish maqsadga muvofiq sanaladi.

Demak, integratsiyalashgan ta'lim maktablarda fan asoslaridan beriladigan bilimlar mazmuniga yangicha yondashuvni ko'zda tutadi va uning asosiy maqsadi o'quv materiallarini mantiqan tugal mazmundagi muammolar majmuasi sifatida o'rganish o'quvchilar ongida olam va jamiyatning yaxlit ilmiy manzarasini shakllantirish, tabiat va unda insonning o'rni haqida ilmiy tushuncha va bilimlarni tarkib toptirishdan iboratdir.

Boshlang'ich sinflarda ekologik ta'limni rivojlantirish ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanishga bog'liq. Mazkur jarayonni to'g'ri tashkil etish o'qitish samaradorligini ta'minlaydi.

Umumta'limda ta'limni rivojlantirish tabiiy fanlar integratsiyasi va ta'limni tabaqalahtirishsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ta'lim jarayonida fanning o'rni, o'quv fanlari mazmuniga mustaqil ta'limni shakllantiruvchi bilimlarni singdirish imkoniyatlari va u qanday aloqadorlikda o'z samarasini berishi haqida mulohaza yuritiladi. Ta'lim jamiyatni harakatlantiruvchi kuch sifatida



ta'kidlanadi. Ta'lim borasida yutuqlarga erishilmasa, jamiyat o'z harakatini davom ettira olmasligi barchamizga ma'lum.

Demak, fan jamiyat rivojlanishidagi asosiy kuch hisoblanadi. Kishilik dunyosini fan nuqtai nazaridan izohlash garchi keyinroq boshlangan bo'lsa-da, uning ayrim oddiy unsurlari jamiyatning kelib chiqish davridan mavjud. Bu bilimlar avval eng sodda ko'rinishda bo'lib, kishilar dunyosi haqidagi eng umumiy qarashlarga oddiy tarzda ifodalangan. Kishilar tevarak-atrofdagi o'simliklar va hayvonat olami to'g'risida ma'lum bilimlarga ega bo'lsalarda, ularning jamiyat haqidagi bilimlari juda qiyinchilik bilan, uzoq davrlar davomida to'planib borgan.

Ekologik tarbiya inson va tabiat munosabatlarini hayotiy timsollarda aks ettirish orqali yoshlarning ekoma'naviy - madaniy saviyasi darajasi hamda dunyoqarashini ifodalash bilan birga inson shaxsini tarbiyalash vazifasini ham bajaradi. Ko'zlangan maqsadga erishish yo'lida ekologik tarbiyaning jamiyat ma'naviy hayoti bilan aloqadorligi masalalari, xususan, o'quvchilarda ekologik bilim va tushunchalarni tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqa.

Zero, har bir yosh nafaqat etuk va barkamol bo'lishi, shu bilan birga atrof muhitga odilona munosabatda bo'lib, tabiat qonun - qoidalarini o'z ichki kechinmalaridek, qabul qilsa, tabiat bilan hamohang, uyg'unlashgan holda faoliyat olib borsagina u tom ma'noda yuksak ma'naviyat va madaniyatga erisha oladi.

Ekologik ta'limni rivojlantirishning asosini, shubhasiz, ekologik ta'lim- tarbiya tizimining barcha bo'g'inlarini ya'ni maktabgacha ta'lim muassasalaridan tortib oily ta'lim bosqichlarini ham qamrab oladi. Chunki muayyan aniq maqsadlarga yo'naltirilgan ekologik ta'lim- tarbiya natijasida o'quvchilarning ekologik bilimlarini oshirish, ularda tabiatga nisbatan ongli munosabatda bo'lish malakalarini tarkib toptirish, mehnatga ixlos bilan munosabatda bo'lish sifatlarini tarbiyalash mumkin. Ekologik tarbiya tizimli va izchillikda olib borilishini nazarda tutish lozim.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ta'limni rivojlantirishni tarkib toptirish vazifasi ta'lim muassasalari, oila, mahalla, keng jamoatchilik bilan hamjihatlikda olib borilishi yaxshi natijalarni berishini ta'kidlagan holda, asosiy mas'uliyat pedagoglarzimmzsiga yuklanadi.

O'quvchilar ekologik yo'nalishdagi asosiy bilimlarni umumta'lim boshlang'ich sinflarida o'qitilayotgan "Tabiiy" fanlar bo'yicha oladilar. Bundan tashqari "Tarbiya" darslarida, shuningdek, ekologik mavzulardagi turli ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarda to'xtaladi. Masalaning muammoli tomoni



shundaki bo'lg'usi yosh mutaxassislarda nazariy bilimlarni amaliy faoliyatda qo'llash malakalari to'la tarkib topgan emas.

Bugungi kunda boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirish masalasi ko'ndalang turgan ekan demak, pedagog kadrlar o'z mehnat faoliyati davomida o'quvchilarda tabiat qonunlari, inson va tabiat va ularning o'zaro mutanosibligi, tabiiy muvozanatni saqlash haqidagi bilimlarni va bular negizida ekologik madaniyatni tarkib toptirishlari, shuningdek, o'quvchilar orasida ekologik mavzulardagi tarbiyaviy ishlarni puxta rejalashtirishlari va amalga oshirishlari lozim bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirish masalasining naqadar muhimligini e'tirof qilgan holda ta'kidlash mumkin, bunda davra suhbatlari, munozaralar, oliygohlar qoshida tashkil qilingan radio yoki televideniya orqali namoyish va o'quvchilarning keng muhokamasiga qo'yilishi yaxshi natijalarni beradi.

Mustaqil tadqiqotchilik ishlarini olib borish davomida boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatni muhofaza qilishga oid ko'pgina ilmiy - ommabop adabiyotlar, ma'lumotlarni tahlil qiladilar, ekologiya sohasida ish olib borayotgan mutaxassislarga murojaat etadilar, to'plangan natijalarni umumlashtiradilar. Shu bilan birga o'quvchilar dunyo miqyosida ekologik muammolarning o'rganilishi, ekologik tarbiya borasida olib borilayotgan ishlar qanday yo'lga qo'yilganligi bilan tanishish maqsadida qiyosiy tahlil qiladilar.

Ekologik fojialarning oldini olishning birdan - bir yo'li tabiatni muhofaza qilish, barcha tabiiy boyliklarimizdan oqilona foydalanishdir. Ammo, har bir inson qalbiga ekologik madaniyatni shakllantirmay turib, bu borada kutilgan natijalarga erishish qiyin. Yoshlar ongiga tabiatning o'z qonun - qoidalari mavjudligini tabiatdagi barcha hodisalar, o'zgarishlar bir - biri bilan bog'liqligini, umuman, insonning tabiatga to'g'ri munosabatda bo'lishi lozimligi haqidagi tasavvurlarni singdirish, shubhasiz, muhim ahamiyat kasb etadi.

Xususan, boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirish shunday jarayon natijasiki, qaysiki jamoatchilikning birgalikda faoliyat yuritishni talab etadi. Bu yerda albatta yuqorida aytib o'tkanimizdek, mahalla-oila va ta'lim - tarbiya maskanlarining ilm dargohlarining birgalikdagi harakatlarini taqozo etadi.

Adabiyotlar:

1. Avazov Sh. Maktabda ekologik tarbiya. -Toshkent: O'qituvchi, 1992. - 62 b.



2. Valiyeva Z. O'quvchi shaxsini axloqiy shakllantirishda ekologik tarbiya // Uzluksiz ta'lim va tarbiya muammolari. -Tashkent: TDPI, 1993. - B.27-31.
3. Герцена А.И. Методика обучения экология в XXI веке // Материалы научно - практическая конференция. - СПб. : Из-во РГПУ, 2002. -89 с.
4. Isaqulova N.J. O'quvchilarga ekologik tarbiya berish nazariyasi va amaliyoti. Monografiya. -T.: Fan, 2011. -140 b.
5. R.A. Mavlonova., N.H. Rahmonqulova "Boshlang'ich ta'limning integrasiyalashgan pedagogikasi". O'quv qo'llanma. - Toshkent. "Ilm Ziyos", 2009. -192 b.
6. Nishonboyeva M.G. Biologiya darslarida ekologik tarbiya. - Toshkent: O'qituvchi, 1992. -104 b.
51. Norbo'tyaev X.B. Boshlang'ich sinflarda fanlararo ekologik tarbiya. //Zamonaviy ta'lim. - 2018.-11-son. - B. 53-58.

РЕЗЮМЕ

Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ekologik ta'limni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari, mazmuni va metodlari, tabiiy fanlar mazmunidagi bilimlarni takomillashtirish, tabiiy fanlar bo'yicha avval o'zlashtirgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarini yangi vaziyatlarda qo'llashi orqali o'quv materialini ongli o'zlashtirish, inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o'rganuvchi turli o'quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va ekologik ta'lim muammolari zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalangan holda bayon qilingan.

РЕЗЮМЕ

В статье описаны особенности, содержание и методы развития экологического образования учащихся младших классов, совершенствования знаний по содержанию естественных наук, применения ранее полученных знаний, умений, умений и компетенций по естественным наукам в новых ситуациях путем сознательного усвоения учебных материалов. материал, интеграция знаний, относящихся к различным учебным предметам, изучающим проблемы взаимоотношений человека и природы, проблемы экологического образования, описываются с использованием современных образовательных технологий.

SUMMARY

The article describes the features, content and methods of developing environmental education for primary school students, improving knowledge of the content of natural sciences, applying previously acquired knowledge, skills, abilities and competencies in natural sciences in new situations through the conscious assimilation of educational materials. material, integration of knowledge related to various academic subjects studying the problems of relationships between man and nature, problems of environmental education, are described using modern educational technologies.